





SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



SURXONDARYO VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

2024-yil yanvar



Dastlabki ma'lumotlar


Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024-yil yanvar)




Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.


Soni, birlikda




Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar
(1-fevral holatiga ko'ra)





Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar
(yanvar)




Soni, birlikda




Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari (1-fevral holatiga ko'ra)



Soni, birlikda




Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari (yanvar)



Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi ¹⁾ (2024-yil yanvar)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hisssasi (2024-yil yanvar)



¹⁾ Shu va keyingi o'rinlarda 2020-2024-yillar ko'rsatkichlari har bir keyingi yil metodologiyasiga muvofiq qayta ko'rib chiqilgan



Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024-yil yanvar)

	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Surxondaryo viloyati ¹⁾	1 265,5	100,0	108,6
Termiz sh.	355,0	28,2	105,3
<i>tumanlar:</i>			
Oltinsoy	50,8	4,0	109,8
Angor	52,2	4,1	110,6
Boysun	39,1	3,1	110,6
Bandixon	27,9	2,2	109,7
Muzrabot	56,2	4,4	110,1
Denov	165,2	13,1	109,6
Jarqo'rg'on	72,9	5,8	110,9
Qumqo'rg'on	80,0	6,3	107,6
Qiziriq	46,1	3,6	109,7
Sariosiyo	76,5	6,0	108,9
Termiz	56,3	4,4	114,5
Uzun	52,7	4,2	108,6
Sherobod	67,3	5,3	110,5
Sho'rchi	67,3	5,3	110,3


Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar)



Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2024-yil yanvar)

	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati, % da
Surxondaryo viloyati	445,3	106,1
Termiz sh.	1 787,6	102,2
Oltinsoy	266,7	107,3
Angor	367,3	108,2
Boysun	317,4	108,4
Bandixon	340,9	106,8
Muzrabot	369,9	107,8
Denov	398,0	106,9
Jarqo'rg'on	309,8	108,2
Qumqo'rg'on	317,2	105,1
Qiziriq	376,3	107,5
Sariosiyo	339,6	106,4
Termiz	674,4	111,5
Uzun	283,7	106,1
Sherobod	322,7	108,2
Sho'rchi	298,1	107,7

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kichik korxonalar subyektlarining ulushi **17,2** foizni, shu jumladan, **63,1** foizni kichik tadbirkorlik va mikrofirmalarning ulushi tashkil etdi.

Hududlar kesimida xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik (2024-yil yanvar)

Surxondaryo viloyati	798,6
Termiz sh	158,6
Denov	100,0
Jarqo'rg'on	53,1
Sariosiy	49,7
Sherobod	49,1
Sho'rchi	48,6
Qumqo'rg'on	47,6
Muzrabot	44,5
Angor	39,8
Oltinsoy	39,3
Termiz	38,8
Uzun	38,5
Qiziriq	37,4
Boysun	30,8
Bandixon	22,8

Hajmi, mlrd. so'mda

Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari (2024-yil yanvar)

Nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Xizmatlar – jami	1 265,5	100,0	108,6
shu jumladan:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	67,7	5,3	112,2
Moliyaviy xizmatlar	309,5	24,5	95,6
Transport xizmatlari	186,4	14,7	112,8
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	162,2	12,8	106,4
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	40,9	3,2	115,7
Savdo xizmatlari	421,9	33,3	112,3
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	27,4	2,2	111,3
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	52,4	4,1	148,6
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	19,6	1,6	123,4
Ijara xizmatlari	24,5	1,9	109,5
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	32,8	2,6	106,8
Shaxsiy xizmatlar	41,1	3,3	109,7
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	12,4	1,0	102,2
Boshqa xizmatlar	28,9	2,3	111,0


Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish Dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) Statistik tasniflagichi (MST) ga ko'ra muvofiqlashtirildi.



Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari


Moliyaviy xizmatlar dinamikasi

(yanvar)



Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar


(2024-yil yanvar)



■ Hajmi, mlrd. so'mda

Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2024-yil yanvar)




Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Termiz shahrining ulushi **45,5** foizni yoki **140,8** mlrd. so'mni tashkil etdi. **2023-yilning yanvar** oyiga nisbatan Termiz shahrida yuqori o'sish sur'ati **93,5 %** ni tashkil etdi.

Transport xizmatlarining umumiy hajmi-da avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **87,0 %**.


Termiz shahrida transport xizmatlari hajmi **32,5** mlrd. so'mni tashkil etgan. Mazkur hududda transport xizmatlari hajmining o'sish sur'ati **109,8 %** ni tashkil etgan.

Transport xizmatlari dinamikasi



Hududlar kesimida transport xizmatlari

(2024-yil yanvar)





¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd. so'mda

Avtomobil transporti xizmatlari dinamikasi (yanvar)

2024-yil yanvar oyida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **162,2** mlrd. so'mga yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **12,8 %** ni tashkil etdi



Hududlar kesimida avtomobil transporti xizmatlari (2024-yil yanvar)



Avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi (2024-yil yanvar)



Yo'lovchi tashish




Yuk tashish

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

2024-yilning yanvar oyida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining **80,2** foizini tashkil etdi.

Savdo xizmatlari dinamikasi

(yanvar)



Hududlar kesimida savdo xizmatlari

(2024-yil yanvar)

Surxondaryo viloyati	421,9
Termiz sh	75,5
Denov	58,3
Muzrabot	26,8
Sherobod	26,5
Sariosiyo	26,3
Sho'rchi	25,7
Jarqo'rg'on	25,7
Qumqo'rg'on	24,6
Angor	22,4
Oltinsoy	22,1
Qiziriq	20,5
Termiz	20,4
Uzun	20,3
Boysun	14,9
Bandixon	11,9

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


Hajmi, mlrd. so'mda



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi. **2024-yilning yanvar oyida ularning ulushi 95,6 foizni tashkil etdi.**

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi

(yanvar)



Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2024-yil yanvar)

Hududlar	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sishi (%)
Surxondaryo viloyati	67,7	+12,2 %
Denov	9,4	+8,2 %
Termiz sh	7,8	+32,5 %
Qumqo'rg'on	6,0	+20,1 %
Jarqo'rg'on	5,5	+18,7 %
Sariosiyo	5,0	+0,8 %
Sherobod	4,6	+14,3 %
Sho'rchi	4,6	+5,1 %
Oltinsoy	4,3	+3,1 %
Uzun	4,2	+7,2 %
Muzrabot	3,3	+12,8 %
Angor	3,1	+17,4 %
Boysun	2,9	+19,5 %
Qiziriq	2,8	+7,1 %
Termiz	2,4	+2,9 %
Bandixon	1,8	+17,5 %

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd. so'mda

● O'sishi




Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

OAV, kontent va AKT xizmatlari sektorlarining muqobil to'plami (2024-yil yanvar)

Nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	Umumiy hajmdagi ulushi, % da
Jami	67,7	100,0
shu jumladan:		
AKT xizmatlari sektori	66,1	97,6
shu jumladan:		
Telekommunikatsiya xizmatlari	64,8	98,0
Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar	1,3	2,0
Kontent va ommaviy axborot vositalari sektori	1,6	2,4
shu jumladan:		
Kitoblar, davriy nashrlar nashr qilish bo'yicha xizmatlar va boshqa noshirlik xizmatlari	1,0	62,5
Kino - videofilmlar va televideniya dasturlari ishlab chiqarish bo'yicha xizmatlar, ovoz yozish va musiqa asarlarini nashr qilish xizmatlari	0,1	6,2
Dasturlar tuzish va teleradioeshittirishlar bo'yicha xizmatlar	0,1	6,2
Boshqa axborot xizmatlari	0,4	25,1

Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi

(yanvar)



Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2024-yil yanvar** oyidagi ulushi **46,7 %** ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar

(2024-yil yanvar)

Surxondaryo viloyati	52,4	+48,6 %
Termiz sh	26,8	+54,5 %
Denov	9,4	+51,2 %
Termiz	3,1	+47,1 %
Sho'rchi	2,3	+31,7 %
Sherobod	2,2	+50,0 %
Jarqo'rg'on	1,4	+36,5 %
Sariosiyo	1,2	+43,4 %
Qumqo'rg'on	1,0	+38,0 %
Uzun	0,9	+32,1 %
Qiziriq	0,9	+27,7 %
Angor	0,8	+32,9 %
Oltinsoy	0,8	+30,4 %
Boysun	0,7	+29,7 %
Muzrabot	0,7	+40,7 %
Bandixon	0,2	+17,6 %

Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sishi

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar)

2024-yilning yanvar oyida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar umumiy hajmida shifoxona muassasalarining xizmatlari salmoqli qismni egallaydi. Ularning ulushi **45,9** foizni tashkil etdi.




Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2024-yil yanvar)

Hudud nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sishi (%)
Surxondaryo viloyati	19,6	+23,4 %
Termiz sh	10,9	+30,4 %
Denov	1,7	+15,3 %
Boysun	1,2	+10,6 %
Sherobod	1,2	+17,5 %
Termiz	0,9	+19,4 %
Jarqo'rg'on	0,8	+14,1 %
Qumqo'rg'on	0,6	+15,5 %
Sho'rchi	0,6	+17,2 %
Sariosiyo	0,3	+16,7 %
Uzun	0,3	+16,7 %
Angor	0,3	+18,3 %
Qiziriq	0,3	+12,3 %
Oltinsoy	0,2	+18,7 %
Muzrabot	0,2	+15,5 %
Bandixon	0,1	+15,9 %

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi

(yanvar)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmida shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlar **93,0** foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (2024-yil yanvar)

Hudud nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sishi (%)
Surxondaryo viloyati	27,4	+11,3 %
Termiz sh	5,0	+9,0 %
Denov	3,0	+11,6 %
Jarqo'rg'on	2,3	+13,0 %
Angor	2,1	+8,2 %
Sho'rchi	1,8	+12,8 %
Sariosiyo	1,8	+12,2 %
Sherobod	1,6	+14,0 %
Qumqo'rg'on	1,5	+13,3 %
Uzun	1,5	+10,2 %
Qiziriq	1,4	+18,5 %
Oltinsoy	1,3	+12,1 %
Muzrabot	1,2	+12,4 %
Boysun	1,1	+16,4 %
Termiz	1,0	+6,9 %
Bandixon	0,8	+10,2 %


¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd. so'mda


● O'sishi

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi (yanvar)

2024-yilning yanvar oyida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ustunlik qildi – **87,8 foiz.**



Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2024-yil yanvar)



¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sishi

Ijara xizmatlari dinamikasi

(yanvar)



Hududlar kesimida ijara xizmatlari (2024-yil yanvar, mlrd. so'mda)




2020-yilning yanvar nisbatan o'rganilayotgan davrda ijara xizmatlari hajmi 8,6 mlrd. so'mga oshib, 24,5 mlrd. so'mga yetdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida 2024-yil yanvar oyida avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlarining ulushi 69,7 % ni tashkil etdi.



¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi (yanvar)



Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining **35,1** foizini tashkil etadi.

Hududlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2024-yil yanvar)


Hudud nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sishi
Surxondaryo viloyati	32,8	+6,8 %
Termiz sh	6,0	-2,5 %
Denov	3,7	+5,0 %
Sho'rchi	2,2	+9,7 %
Sariosiyo	2,1	+6,5 %
Qumqo'rg'on	2,1	+8,2 %
Jarqo'rg'on	2,1	+8,8 %
Sherobod	2,0	+7,7 %
Angor	1,9	+8,1 %
Oltinsoy	1,7	+8,2 %
Uzun.	1,7	+8,2 %
Muzrabot	1,6	+7,1 %
Termiz	1,5	+7,3 %
Qiziriq	1,5	+9,8 %
Boysun	1,5	+8,8 %
Bandixon	1,2	+9,7 %

1) hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


Hajmi, mlrd. so'mda

O'sishi

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar)



Hududlar kesimida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (2024-yil yanvar, mlrd. so'mda)



2020-yilning yanvar oyiga nisbatan joriy yilning tahlil qilinayotgan davrida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **4,5** mlrd. so'mga oshib, **12,4** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Termiz shahrining ulushi **82,2 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
Tel.: 76-225-65-91



Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

Telekommunikatsiya xizmatlari bu – ovozli, matnli, ovozli yoki video ma'lumotlarni uzatish kabi telekommunikatsiya va boshqa tegishli xizmatlarni taqdim etish.

“Ta’lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.

Ta'lim sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.



Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarini operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.